O‘ZBEK TILIDA SPORTGA OID LEKSIK BIRLIKLAR TARAQQIYOTI

Mo‘ydinov Qodirjon Abdurasulovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Tilshunoslikda leksik-semantik guruhlar tarkibidagi lug‘aviy birliklarni aniqlash, ularning o‘zaro munosabatini sohalar leksikasi doirasida o‘rganish tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi. Mazkur maqolada o‘zbek tili sport leksikasi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning ma’noviy munosabatlari o‘rganildi.

Abstract

In linguistics, the identification of lexical units within lexical-semantic groups and the study of their interrelations within the framework of domain-specific vocabulary have emerged as an important object of research. This article examines the semantic relationships of lexical units within the sports lexis of the Uzbek language.

Аннотация

В языкознании выявление лексических единиц, входящих в состав лексико-семантических групп, и изучение их взаимосвязей в рамках отраслевой лексики выдвинулись в качестве объекта исследования. В данной статье рассматриваются семантические отношения лексических единиц, входящих в состав спортивной лексики узбекского языка.

Kalit so‘zlar: sport, sport atamalari, sport leksikasi, terminologiya, okkazional so‘zlar, leksik birlik, o‘zlashgan so‘zlar.

Keywords: sport, sports terms, sports vocabulary, terminology, occasional words, lexical units, borrowed words.

Ключевые слова: спорт, спортивные термины, спортивная лексика, терминология, окказионализмы, лексические единицы, заимствованные слова.

Jahon tilshunosligida tilning amaliy tomonlarini tadqiq etuvchi bir qator o‘ziga xos yo‘nalishlar shakllanmoqda. Zamonaviy sport sohasida leksik birliklarni lingvomadaniy, kognitiv va leksikografik tavsifini berish muhim amaliy ahamiyatga ega jarayondir.

Tilshunoslikda sport sohasiga doir bir qator tadqiqotlar olib bormoqda. Sohada lisoniy hodisalarning sotsiopragmatik, semantik va leksikografik jihatdan tadqiq qilish bu boradagi muammolar yechimiga daxldorlik kasb etadi. Xususan, tilni jahon miqyosida tashuvchisi sifatida namoyon qiluvchi sport sohasini xoslovchi birliklarini lisoniy va leksikografik nuqtayi nazardan o‘rganish bugungi kunda til va muloqot strukturasi tadqiqi muammosi kuchaygan bir sharoitda o‘ta dolzarb hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda boshqa sohalar singari sport sohasini rivojlantirish, jumladan, omma orasida targ‘ib qilish, radio va televideniye orqali muntazam taqdim etish masalasi mustaqilligimiz taraqqiyot sharti sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Xususan, o‘tgan asrning ikkinchi yarmiga nisbatan mustaqillik yillarida mamlakatda sport sohasi sezilarli darajada

rivojlandi. Buning natijasida sport jurnalistikasi ham o‘z-o‘zidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, milliy kurashimizga oid ayrim sport atamalari dunyoning boshqa tillarida taqdim etiluvchi sharhlarda sof o‘zbek tilida yangray boshladi. Boisi “kurash”, “halol”, “chala”, “g‘irrom”, “yonbosh”, “halol” kabi so‘zlarning barcha tillarda birdek aytilishi ham o‘zbek tilining o‘ziga xos boyishi hisoblanadi. Vaholanki, “milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish... lozim”[1] . Shunga ko‘ra sport uchrashuvlari, o‘yinlari tushunchalarini ifodalovchi leksik birliklarni lingvistik: lingvokulturologik, leksikografik jihatdan tadqiq etish, ularning jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma’naviy kamolotidagi ijtimoiy ahamiyati bilan bog‘liq masalalar hozirgacha maxsus monografik tadqiq obyekti bo‘lmaganligi mazkur mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi. Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri “Milliy sport turlarini rivojlantirish va ommaviyligini oshirish, ularni Osiyo va Olimpiya o‘yinlari dasturlariga kiritish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish” hisoblanadi[2] va ular faqat milliy sharhlar yordamida jamoatchilikka taqdim etiladi.

O‘zbek tili leksikasida yangi sport terminlarining xorijdan kirib, o‘zlashgan so‘zlar qatoridan o‘rin olishi o‘zbek sport leksikasining boyishi va barqarorlashib borishini belgilaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid leksik birliklar izohlanib, til va madaniyat munosabatlarini uzviy bog‘liqligini ifodalovchi misollar bilan dalillangan. Shuningdek, xalqaro sportga oid atamalar ham tashqi, ichki va lingvistik omillar bilan aloqadorligi isbotlangan. Sport sohasida qo‘llanilayotgan o‘z va o‘zlashma qatlamga doir leksik birliklarning semantikasini inobatga olib, ularni imkon qadar milliylashtirish masalasi muhim hisoblanadi. Masalan, “kurash”, “poyga”, “ko‘pkari” kabi sport atamalari or-nomus talashish, urug‘ yoki ajdodlar sha’nini himoya qilish, kuchni ko‘rsatish, mahoratini namoyon qilish kabi madaniy semalarga ham ega ekanligi dalillangan.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sportga qaratilgan e’tibor sohani yangi bosqichga ko‘tarishga zamin yaratdi. Qonunlar va dasturlar asosida yurtimizda tashkil etilgan turli tizimdagi ichki va xalqaro musobaqalar, mamlakatimizga ko‘plab xorijlik sportchilar, mutaxassislar va xalqaro musobaqa tashkilotchilarining tashrifi, ular bilan sohaning amaliy rivoji uchun o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatilishi o‘zbek tili sport terminologiyasida ko‘plab boshqa tillarga xos bo‘lgan terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunday terminlar qatorida refere, master klass, turnir, VAR, armvrestling, grebling, kriket v.h. o‘zlashma birliklar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Ularning o‘zbek tili sharhlaridagi ifodalanishi lisoniy mezonlarni o‘rganilishini talab qiladi.

Sportga oid leksik birliklar milliy va ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda sport va madaniyat taraqqiyoti yutuqlarini o‘zida aks ettirgan, ilmiy asoslangan tushunchalar yoki xatti-harakatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Sport terminologik tizimida neologizmlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan okkazional so‘zlar ham mavjuddir. Sport sohasida sportchi yoki murabbiy tomonidan yaratilgan yangi harakat yoki uslub o‘z kashfiyotchisi nomi bilan ataladi.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги «Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади» мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5924-сонли фармони.

Sport sohasiga oid terminlar ham mavjud. Binobarin, ingliz tilida ma’lum bir sport sohasiga oid yangi termin o‘zbek tili iste’molida hali qo‘llanilmagan bo‘lsa yoki qo‘llanilish ehtimoli yuqori bo‘lsa, bu jarayon termin-neologizm bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi.

Sportga oid terminlarni qo‘llashda o‘sha tilning milliy xususiyatlari ham hisobga olinadi. Sportga oid leksik birliklarni nominatsiya tamoyillariga ko‘ra quyidagi shaklda tasniflash va guruhlashtirish mumkin:

1) shaxs tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar;
2) predmet yoki obyekt tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar;
3) harakat tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar;
4) o‘rin-joy tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar;
5) sport o‘yinlarini ifodalovchi leksik birliklar.

So‘nggi yillarda sohada yangidan-yangi sport turlarining keng jamoatchilik hukmiga havola qilinishi o‘z navbatida sprot sohasiga oid yangi leksik birliklarni tilimizga kirib kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida so‘z qo‘llashda ayrim g‘alizliklarni keltirib chiqarmoqda. Shu yoki shunga o‘xshash holatlarning oldini olish maqsadida o‘zbek tilidagi sport sohasiga oid ayrim so‘zlar qo‘llanishi, soha leksikasini tartibga solish, terminlarga nisbatan ilmiy munosabat bildirish, ularni o‘rinli qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vaqti bo‘ldi deb o‘ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda, sport sohasiga oid leksik birliklarni quyidagi ko‘rinishda guruhlarga ajratdik:

1. Sport sohasida shaxs tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar: hakam, chavandoz, muxlis, sekundant, sharhlovchi, muurabbiy.

2. Sport sohasida (predmet) narsa yoki buyum tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar: belbog‘, koptok (to‘p), gilam (mat) v.b.

3. Sport sohasida harakat tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar: tepmoq, to‘smoq, hujum qilmoq, otmoq v.b.

4. Sport sohasida o‘rin-joy tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar: maydon, arena, kort, stadion, suv havzasi (basseyn), minbar (tomosha minbari, tribuna) v.b.

5. Sport sohasida sport o‘yinlari turlari tushunchasini ifodalovchi leksik birliklar: xokkey, futbol, volleybol, kurash, boks, yugurish, suzish, qilichbozlik v.b.

6. Sportda aralash turdagi leksik birliklar: rekord, turnir, mahorat, suv (sporti), jismoniy holat, tezlik, sport gigiyenasi v.b.

Sport sohasiga doir leksik birliklarni guruhlarga ajratish aralash, murakkab yoki tushunarsiz bo‘lgan tushunchalarni aniqlashga va tartibga solishga yordam beradi. Biroq bu o‘rganish sport sohasiga oid so‘zlar o‘rtasidagi chegarani aniq ko‘rsatib bera olmaydi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq sport sohasiga qaratilgan e’tibor sohani yangi bosqichga ko‘tarishga zamin yaratdi. Qonunlar va dasturlar asosida yurtimizda tashkil etilgan turli tizimdagi milliy, mahalliy va xalqaro sport musobaqalari, yurtimizga ko‘plab xorijlik sportchilarning kelishi, sohaning amaliy rivoji uchun ular bilan o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatilishi o‘zbek tili sport terminologiyasida ko‘plab terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Bunday terminlar qatorida refere, master klass, turnir kabi yangi o‘zlashma so‘zlar, terminlar ham kundan kunga ko‘payib bormoqda. Hozirgi kunda barcha sohada kuzatilganidek, muayyan soha doirasidagi tushunchalar va so‘zlarga tayangan holda uzluksiz ravishda ko‘p sonli yangi leksik birliklarni vujudga kelishiga zamin yaratdi. O‘zbek tilidagi mavjud sport sohasiga oid terminlar ham shular jumlasidandir. Ushbu birliklarni ommaviy axborot vositalarida orqali sharhlash sportga oid leksik birliklarni milliy va ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda ilmiy asoslash ham davlat tili bo‘lgan o‘zbek tilimiz lug‘at tarkibining boyishida ahamiyat kasb etadi, soha tili leksikasini tizim sifatida o‘rganishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015

2. Mo‘ydinov Q.A., Shofqorov A.M., Tajiboyev B.R. O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. – Toshkent: Bookmany print, 2022.

3. Xudoyberganova D. Mustaqillik davrida sportga doir leksemalar taraqqiyoti // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Ilmiy-amaliy anjuman (ijtimoiy fanlar). – Buxoro, 2017. – 124 b.

4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2002, 174 b.

5. Boboyorov M. H. Mustaqillik davri jismoniy tarbiya va sport atamalarining shakllanishi: Filol. fan. nomz. dis. ... avtoref. – Samarqand, 2009. – 22 b.